



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



QONUN CHOLG'USI HAQIDA.

Hayitova Marjona Sherzod qizi

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek Milliy
Musiq San'ati instituti "Bastakorlik san'ati"
Fakulteti 1-kurs magistrandi*

Annotatsiya: *Qonun cholg'u ijrochiligi, uning diapozoni va uning kelib chiqishi. Nazm gulshanining bulbuli Mavlono Muqimiyning "Istar ko'ngil" g'azalida qonun qadimiy cholg'u bo'lganini isbotlagani haqida. Ustozimiz Abduraxmon Xoltojiyev qonun cholg'usini iste'moldan chiqqandan so'ng uni darslik sifatida olib kelganliklari xususida fikr yuritamiz.*

Kalit so'zlar: *Sharq xalqlari, qonun, oktava, diapozon, Mavlono Muqimiy, urb parda, Abdurahmon Xoltojiyev.*

Аннотация: *Исполнение инструмента канун, его диапазон и происхождение. Соловей поэта Гульшана Мауланы Мукими в его газели «Истар конгил» доказывает, что канун был древним инструментом. Мы обсудим тот факт, что наш учитель Абдурахмон Холтоджиёв привёз инструмент канун в качестве учебного пособия после того, как он вышел из употребления.*

Kirish:

Qonun cholg'usi — bu Sharq xalqlari musiqasida keng tarqalgan, torli-chertma cholg'ulardan biridir. Uning nomi arabcha “qanun” so'zidan olingan bo'lib, “qonun, me'yor, o'lchov” degan ma'nolarni anglatadi. Qonun cholg'usi qadimiy tarixga ega bo'lib, uning ilk shakllari qadimgi Mesopotamiya va Misr madaniyatlarida uchraydi. Asrlar davomida bu cholg'u turli xalqlar madaniyatiga singib, o'ziga xos shakl va tembrga ega bo'lgan professional cholg'uga aylangan.

Qonun cholg'usining kelib chiqishi

Qonun cholg'usi ko'p insonlarga tanish bo'lmagan, cholg'u hisoblanadi. Qonun Sharq musiq tizimlarining asosiy torli cholg'ularidan biri bo'lib, uning paydo bo'lish tarixi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi fors, arab, turk va o'zbek madaniyatlarida qonun cholg'usining o'ziga xos variatsiyalari shakllangan. Uni milliy, estrada, kuy va ashularni ijro qilishda foydalanishadi. Ma'lumotlarga qaraganda qonun 1915-1920-yillardan, oldingi davrlarda ham mavjud bo'lgan. Bizni shoirlarimizni g'azallarida ham bu haqida guvoh bo'lishimiz mumkin. Mana shulardan biri, hammamizga tanish bo'lgan Nazm gulshanining bulbuli Mavlono Muqimiyning “Istar ko'ngil” g'azalidan misol qilamiz.

Mutribi xush savtlar tanburini soz aylasa,

Ruhparvar she'r o'qib xirgoyi ovoz aylasa,

Gohi “miskin” mashqiyu, gohi “chapandoz” aylasa,

Gohi g'ijjak, gohi qonun, gohi dutor istar ko'ngil.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Shuni aytish joizki, bu davrda qonun cholg'usi mavjud bo'lganini isbotini ham, mana shu g'azal orqali bilishimiz mumkin. Bu davrlardan so'ng bir necha yillar qonun musiqa asbobi iste'moldan chiqib ketdi. Undan so'ng Abdurahmon Xoltojiyev ustozimiz sharofati bilan, qonun asbobi, bizning yurtimizda ham yana darslik sifatida qo'shildi. Abdurahmon Xoltojiyev ustozimizning aytishlaricha: "Talabalik davrimizda ustozimiz Isoq Rajabov bizga "Maqom asoslari" fanidan dars berganlar va bizga qonun cholg'usi haqida ma'lumot berib, changga yaqin bo'lganligi uchun, bu sozni tiklashga urindim, va 1980-yillarda Baku shahriga borib, bir oy u yerda turdim, qonun cholg'usini o'rgandim, qonun musiqa asbobini sotib olib, ilk bor olib keldim, va davlat imtihonlarida birinchi bo'lib, qonun cholg'usini chalganman," dedilar. Ustozimizning bu qo'shgan katta hissalarini tufayli hozirda 250 dan ortiq qonun musiqa asbobini qiziqib, o'rganib, chaluvcilar soni ko'paydi. 2005-yilda ustozimiz Abdurahmon Xoltojiyev qonun cholg'usi uchun alohida darslik yozdilar va hozirgacha qonun cholg'usini o'rganayotganlar shu kitobdan foydalanishadi.

Tuzilishi va tembrni

Qonun cholg'u asbobi torli-tirnama cholg'ular guruhiga kiradi, u 72ta simdan iborat bo'lib, unda har uchta sim, bitta nota hisoblanadi. Bu degani qonunda 24 ta nota ketma-ketlikda joylashgan. Qonun cholg'usi, chang cholg'usidan anchagina farq qiladi deb o'ylayman. To'g'ri simlari ko'pligi uchun odamlar changga ham o'xshatishadi, lekin chang alohida dunyo, qonun alohida bir olamdir. Ularning o'xshashligi, ular oiladosh cholg'ularga kiradi. Yani changsimon cholg'ular oilasiga kirishadi. Qonun uchburchak shaklidagi yog'och korpusdan iborat bo'lib, unda 24 dan 27gacha tor mavjud. Har bir tor juftliklarda joylashgan bo'lib, ular o'ziga xos tembrni hosil qiladi. Cholg'u ijrochisining barmoqlariga maxsus "mizrob"lar kiygizilib, torlar chertiladi. Bu jarayon natijasida shaffof va tiniq tovush hosil bo'ladi. Qonunning tovushi torli cholg'ular orasida eng yumshoq va lirizmga boy bo'lgan tovushlardan biri hisoblanadi.

Qonunda notalar ketma-kat, (yani do notasidan keyin re notasi) keladi. O'ylashimiz mumkin, kuyimizda alteratsiya belgilari uchra qolsa, qonunda qanaqa qilib chalinadi deb? Buning ham ilojini topishgan. Yani ularni paydo qilishimiz uchun, alohida ko'targichlar joylashtirishgan. Ko'targichlarni nomini "Urb parda" deb nomlashgan. Biz urb pardalarni Ko'tarib tushurib, kuyimizda kelgan alteratsiya belgilarini quyib ijro qilamiz. Urb pardalarning soni o'zbek qonunlarida ikkidan bo'ladi. Sharq xalqlarida, masalan turk, eron, arab qonunlarida urb pardalar soni 4 tadan 12 tagacha ham bo'ladi. Urb pardalarning sonini ko'pligi, ulardan "nim pardalarni" chalish uchun foydalanishadi. Qonun cholg'usi tut, o'rik daraxtlaridan yasaladi, uning uzunligi 800-900mm, eni 300-400mm atrofida bo'ladi. Uning diapazoni kichik oktava redan, 3 oktava fa yoki fa diyezgacha, bu degani, qonunning diapazoni 3 yarim oktavadan ham oshadi.

Zamonaviy musiqa jarayonlarida qonunning o'rni

Bugungi kunda qonun cholg'usi faqat maqom ansambllarida emas, balki estrada,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



simfonik va xalq cholg'ular orkestrlarida ham keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy bastakorlar qonun uchun maxsus asarlar yaratmoqda. Bu esa uning imkoniyatlarini kengaytirib, musiqiy merosimizni yanada boyitmoqda.

Xulosa:

Qonun cholg'usi Sharq musiqiy tafakkurining ramzi sifatida nafaqat o'zbek xalqining, balki butun sharq xalqlari madaniy merosining ajralmas qismiga aylangan. Uning boy tembri, murakkab texnikasi va ifodaviy kuchi uni ansambl va yakka ijroda muhim o'ringa ega qiladi. Qonun san'ati ustalari bugungi kunda ham an'anaviy merosni saqlab, yangi ijrochilik maktablarini shakllantirmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ХОЛТОЖИЕВ .А “АНЪАНАВИЙ ҚОНУН ЧОЛҒУСИ ИЖРОЧИЛИГИ
Тошкент 2005 йил
2. Rajabiy, Y. "O'zbek xalq musiqasi tarixi", Toshkent, 1972.
3. Karimov, R. "Sharq cholg'ulari ensiklopediyasi", Toshkent, 1998.
4. Mahmudov, A. "Maqom va cholg'u ijrochiligi", Samarqand, 2005.
5. Ismoilov, A. "O'zbekiston xalq cholg'ulari", Toshkent, 2010.
6. Raxmonov, B. "Zamonaviy bastakorlikda milliy cholg'ular", Toshkent, 2018.

